



TOG'AY MUROD ASARLARIDA OBRAZLAR POETIKASI
(“BU DUNYODA O'LIB BO'LMAYDI” ASARI MISOLIDA)

Toshpo'latova Iroda

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-bosqich 613-21(304)- guruh talabasi*

Annotatsiya: *Tog'ay Murodning bu romanida o'zgacha voqealar yoritilgan bo'lib, Sho'ro tuzumidagi mudhish va ayanchli voqealar fosh etilgan. Bu esa Botir firqa hayoti misolida namoyon bo'ladi. Bu voqealar asosida o'quvchi o'ziga xulosa qilib, vijdonli va bu hayotda ko'ngliga quloq solib yashash kerakligini anglaydi.*

Tayanch tushunchalar: *Obraz, yozuvchi mahorati, Sho'ro tuzumi, Buqalamun obrazlar, bosh qahramon nutqi, ocharchilik, vijdonlilik.*

Badiiy adabiyotning eng o'tkir quroli bu so'z hisoblanadi. So'zni qanday jilolantirish esa, yozuvchining mahoratiga bog'liq. Yozuvchining mahorati u yaratgan asaridagi obrazlarda va ularning tilida namoyon bo'ladi.

Obraz haqida adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov shunday deydi: "Badiiy obraz borliqning (undagi narsa va hodisa v.h) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir." [1;68] Yozuvchi o'zi yaratgan obrazlar orqali o'zining nima demoqchi bo'lganini o'quvchiga yetkazadi. Yana bir adabiyotshunos olim Sharafjon Sariyev ham obrazga quyidagicha ta'rif beradi: "Obraz keng ma'noda ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasi, tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosidir". [5;43]

O'zbek milliy adabiyotimizda o'ziga xos obrazlar yaratgan novator yozuvchilardan biri bu Tog'ay Muroddir. Tog'ay Murod yaratgan asarlar va ulardagi qahramonlar bir-birini mutlaqo takrorolamaydi. Tog'ay Murod yozgan asarlaridan o'zbekona milliyligimiz nafasi ufurib turadi. Yozuvchi haqida pedagogika fanlari professori Qozoqboy Yo'ldoshev shunday deydi: "Tog'ay Murodning asarlari urbanizatsiya va globallashuv bois o'q tomiridan tobora uzoqlashib borayotgan bugungi o'zbekni asl milliy tuyg'u sezim va kechinmalar bilan oshno qiladi. Yozuvchi chin milliy tuyg'ularni bilishi hamda go'zal tasvirlay olishi bilan qadrlidir." [3;279] Tog'ay Murod qaysar, so'zini ustidan chiqadigan yozuvchi edi. Asarlaridagi yaratgan obrazlarida ham bu narsa sezilib turadi. Yozuvchining "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanidagi bosh obraz qilingan Botir firqa ham qaysar va dangal odam sifatida tasvirlangan. Asardagi obrazlarning ismlari ham uning qanday xarakterga ega ekanligini ochib beradi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi qahramonning ajdodlari bilan ham tanishtirib o'tadi "Qodir qulni chevarasi, Xolmat malayni nevarasi, Eson xizmatkorni bolasi" [4;5]. "Qul, malay, xizmatkor" bo'lgan bobolari izidan Botir qo'shchi ham Botir firqa bo'ldi. Mening fikrimcha, Botir firqada bir emas ikki inson tuyg'ulari, o'ylari mujassamlashgan. Birinchisi mard, jasur, insoniy fazilatlariga ega inson, ikkinchisi esa, mavjud tuzumda



tarbiyalangan va o'sha tuzumga xizmat qiladigan firqa. Botir firqa 1933-yilda ocharchilik paytida eski hovuzga ochdan o'lganlarni ko'mib yuborilayotganda Botir firqa yuziga fotiha tormoqchi bo'ladi, biroq "Yuqoridagi"lar ko'rib qolmasligi uchun unday qilmaydi. "Botir firqa marhumlarga tikilib turdi-turdi...beixtiyor qo'llarini ko'tardi. Marhumlar haqqiga duo o'qimoqchi bo'ldi. Birdan esini yig'ib oldi. Firqa ekanini o'yladi. Sho'ro raisi ekanini o'yladi. Eng yomoni- tepasida NKVDchilar qarab turishi bo'ldi"[4;18]. Yozuvchi o'sha vaqtdagi ahvolni ta'sirchanlik bilan ifodalaydiki, kulgan inson ham shunchaki kulolmaydi. Qozoqboy Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda: "Basharti kulganda ham kishida adoqsiz mung uyg'otadigan kulgi yuzaga kelgan bo'lardi"[3;285]. Tarixdan ham ma'lumki, NKVDchilarning asosiy maqsadi- ocharchilikni emas, ochlarni tugatishga qaratilgan edi.

"-Bular odam...- deya duduqlandi botir firqa.

-Bular ... Odammi?

-Yo'q, ular ochdan o'lganlar dedi komandir- Ular Sovet hukumatiga qarshi ochdan o'lganlar."[4;18] Komandirning bu so'zlarini o'qib kulishni-da, yig'lashni-da bilmaydi o'quvchi. Asar davomida Botir firqa bilan birgalikda unga fikrdosh obrazlar ham borki, ulardan biri viloyat partiya qo'mitasi birinchi kotibi Rajabov obrazidir. U asarda "Katta"larning so'zini so'zsiz bajaradiganlardan etib tasvirlangan. Botir firqaning kampiri ham haqiqiy sodda o'zbek ayolining timsolidir. U biror marta erining ko'ziga tik qaramagan va unga yomon gapirmagan ayoldir. Botir firqa ham ayolini juda yaxshi ko'rar, ardoqlar edi. "- Stalin davrida ... Mana shu kampirim...qiz edi! Barchin yuzli-barchin yuzli qiz edi! -pichirladi Botir firqa. -Men oshiq edim, kampirim mashuq edi. [4;131] Botir firqa keksalik chog'larida ana shunday hamsuxbatdoshlar bilan birga bo'ldi.

Asarda Mirzo Madiyev hamda Dilbar Mirzaxo'jayeva kabi buqalamun timsolidagi obrazlar ham bor. Dilbar Mirzaxo'jayeva asarda jamiki nobop ishlarni barchasini qilib bo'lib, oq ro'mol orqasiga berkinadi. Madiyev kabi "katta"larning oyog'ini yalashga ham tayyor turgan obrazlar esa, xuddi Chexovni "Buqalamun"i kabi tuslanadi.

Xulosa qilib aytganda, Botir firqa mavjud tuzumda tug'ildi, tarbiyalandi, unga xizmat qildi. Oxir oqibatda xayollar girdobida o'zi bilan o'zi yolg'izlanib qoldi. Umrining oxirida qilgan barcha ezgu ishlari hamda eng katta xatosi bo'lmish To'raqulov vafot etganda uni Sovet jamiyati faol odamlaridan biri sifatida aytib, eskilik deya janoza o'qitmay ko'milgani o'ylaydi va yig'lab go'rkovdan yozib olgan bittagina duosini o'qib tilovat qiladi. Chunki unda vijdon degan narsa bor edi. Ozod Sharafiddinov aytganidek, "Vijdon masalasi ko'p qirrali inson hayotining, jamiyat turmushining hamma tomonlari bilan bog'liq masala" [2;218].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilmurod Quronov. "Adabiyotshunoslikka kirish" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2004
2. Ozod Sharafiddinov. "Saylanma" . "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2018



3. Qozoqboy Yo'ldoshev. "So'z yolqini" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent- 2018
4. Tog'ay Murod. "Saylanma" II jild. Ziyo nashr. Toshkent – 2018
5. Sharafjon Sariyev. "Adabiyot" qo'llanma. "Yangi kitob" Toshkent- 2018